

ONA BORKI OLAM MUNAVVAR

JDPI talabasi

Mahmarahimova Laylo

Biz qachon kitobni sevib o'qiyamiz? Unda tanish qismatlar aks etgan bo'lsa qaxramonlarining bilan qardosh,baxtdosh bilan bo'la olsakina,shu nuqtai nazardan O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari"qissasi haqida O'zbekiston xalq yozuvchisi Sayid Ahmad shunday degan edi: "Dunyoning ishlari" asarini qissa emas doston deb atashini istardim. U qo'shiqday o'qiladi uni o'qib turib o'z onalarimizni yodga olamiz.

Kitobxon o'ziga qanday kitob tanlamasin inson qalbiga yetib boradigan his tuyg'ularni va undagi kichkina voqea sabab o'zining butun bir hayoti davomida qilgan ishlarini va odamlarga qilgan munosabatini o'sha bir kichkina olamda topishini xohlaydi.Kecha,bugun,ertaga ham onalarimizni bizga bo'lgan mehri,ishonchi,shijoati so'nmaydi O'tkir Hoshimov o'z asari haqida"Dunyoda hech bir chegarani tan olmaydigan va quyosh kabi muttasil nur sochib turadigan sehirlil kuch bor. Bu-ona mehri!Allox onamni yaratgan!"Bu asarni ilk marotaba o'qiganimda ko'zimga yosh kelgan ha eslayman o'shanda shaharga endigina kelgan abiturent edim.

Oilamdan yiroq bo'lganim uchunmi yoki sog'inganim uchunmi bilmadim.Yo'q nega aynan onamni boshqalarni emas onamni eslab yig'ladim buni so'z bilan tushuntirolmayman inson qalbidagi shunday yog'duki insonning butun bir dunyosini yoritadi.Yaqindagi bir voqea yodimga tushadi butun dunyoga xavf solgan afsuslar bo'lsinki bizni ham chetlab o'tmagan"Karona virus" balosi bizni ham

daxshatga soldi. Bu mavzu haqida nega soʻz ochdim chunki butun vujudimni titroqqa solgan qoʻlsiz oyoqsiz kasallik mening onamga ham xavf soldi. Aynan oʻsha payt men koʻp narsalarni anglab yetdim. Inson bazan hayotning rangli lagʻzalari men uchun rangsizlikka aylangan huddi kuz yaprogʻidek, qalbimdagi ogʻriqlar koʻzimdagi yoshlar kabi toʻkildirdi. "Oʻgʻlim meni ham kitob qilib yozsangchi " degan gapi meni aynan hayotimda boʻlgan voqeani eslatadi.

Oʻsha joyini vujudimni titroqqa solgan, bizga Allox bergan neʼmatlarni oʻz vaqtida qadriga yetishimiz ayni oxirgi nuqtada emas oʻz vaqtida yetishimizni oʻrgatadi. "Jannat onalar oyogʻi ostida" degan sehirlil soʻzlar bir haqiqat ekanligi bejizga emas.